O'ZBEKISTON TURIZMI VA UNING IQTISODIY VA IJTIMOIY SOHALARGA TA'SIRI

Turg'unova Odinabonu Shuxratbek qizi
O'zbekiston davlat Kanservatoriyasi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz turizmning naqadar rang-barang ekanligi haqida so'z yuritamiz: dam olishdan tortib ziyoratgacha, ekoturizmdan tortib sarguzashtlargacha. Nima uchun birgina sayyohning kelishi butun bir qishloq hayotini o'zgartirishi yoki iqtisodiyotni oyoqqa turg'izishi mumkin? Maqola davomida turizmning jamiyatimizga keltirayotgan foydasi, odamlar daromadiga ta'siri va ushbu sohaning biz tasavvur qilmagan yangi qirralari oddiy va qiziqarli tilda tahlil qilinadi. Agar siz turizm qanday qilib dunyoni va hayotimizni go'zallashtirishi bilan qiziqsangiz, ushbu maqola aynan siz uchun!

Kalit so'zlar: O'zbekiston turizmi, madaniy meros, ziyorat turizmi, mehmondo'stlik, sayyohlik turlari, turistik viloyatlar, iqtisodiy rivojlanish, sarguzasht va dam olish, global nufuz.

TOURISM IN UZBEKISTAN AND ITS IMPACT ON ECONOMIC AND SOCIAL SPHERES

Abstract. It is a beautiful bridge between the past and the future. In this article, we talk about different types of tourism: from simple holidays to visiting holy places and adventures. Why can one tourist change the life of a whole village? We explain how tourism helps people and the economy in a very simple and interesting way. If you want to know how tourism makes our world better, this article is for you!

Key word: Uzbekistan tourism, cultural heritage, pilgrimage tourism, hospitality, types of tourism, tourist regions, economic development, adventure and rest, global status.

ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИЧЕСКУЮ И СОЦИАЛЬНУЮ СФЕРЫ

Аннотация. Это красивый мост между прошлым и будущим. В этой статье мы говорим о том, каким разным бывает туризм: от обычного отдыха до поездок в святые места и приключений. Почему один турист может изменить жизнь целой деревни? Мы просто и интересно рассказываем, как туризм помогает людям и экономике страны. Если вы хотите узнать, как туризм делает наш мир лучше, эта статья для вас!

Ключевые слова: Туризм Узбекистана, культурное наследие, паломнический туризм, гостеприимство, виды туризма, туристические регионы, экономическое развитие, приключения и отдых, мировой статус.

Kirish

Bugungi kunda turizm dunyo iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi, balki xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi. Turizm orqali insonlar yangi mamlakatlar, tarixiy obidalar, milliy an'analar va turli madaniyatlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu sababli turizm nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ham ega bo'lgan soha sifatida e'tirof etiladi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

O‘zbekiston boy tarixiy merosi, qadimiy shaharlari va betakror madaniyati bilan dunyo sayyohlarini o‘ziga jalb qiladigan mamlakatlardan biridir. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlar, ulardagi me’moriy yodgorliklar va muqaddas ziyoratgohlar turizm rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, mamlakatning tabiiy manzaralari, milliy urf-odatlari va mehmondo‘st xalqining samimiyati ham sayyohlar uchun katta qiziqish uyg‘otadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlat tomonidan yangi turistik infratuzilmalar yaratish, tarixiy obidalarni saqlash va xalqaro sayyohlar uchun qulay sharoitlar tashkil etish bo‘yicha ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga, aholi daromadining oshishiga va hududlarning rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, turizmning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati ham juda katta. Turizm mahalliy aholining turmush tarziga, madaniy merosni asrab-avaylashga va xalqaro maydonda mamlakat nufuzining oshishiga xizmat qiladi. Shu sababli turizmni rivojlantirish bugungi kunda har bir davlat uchun muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism

1. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi. Ayniqsa, tarixiy va diniy merosimizni tiklash, qadimiy qadamjolarni ta’mirlash hamda ularni turistik obyekt sifatida rivojlantirish bo‘yicha muhim ishlar amalga oshirildi. Bu jarayonda ko‘plab allomalar va avliyolarimizning qabr-maqbaralari qayta tiklandi hamda ular atrofida yirik majmualar barpo etildi.

Masalan, Samarqand viloyatining Tayloq tumanida Xo‘ja Darun, Urgut tumanida Imomi A’zam, Jizzax viloyatining Baxmal tumanida Mir Sayid Xalil, G‘allaorol tumanida esa Sadr Vaqos kabi allomalarimizning maqbaralari qayta ta’mirlanib, ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratildi. Bu qadamjolar xalqimizning boy ma’naviy merosidan dalolat beruvchi muhim tarixiy obidalar hisoblanadi.

Shunga qaramay, ushbu muqaddas maskanlarning ayrimlari hali to‘liq turistik marshrutlarga kiritilmagan. Natijada bu joylarga asosan mahalliy aholi ziyorat qilish uchun tashrif buyuradi. Agar bu tarixiy va diniy maskanlar haqida kengroq ma’lumot berilib, ular turistik yo‘nalishlarga kiritilsa, mamlakatimiz turizmining yanada rivojlanishiga katta hissa qo‘shishi mumkin.

Mustaqillik yillarida turizm infratuzilmasini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, 2007-yillarda Samarqand shahri va viloyatida ko‘plab zamonaviy mehmonxonalar qurildi hamda mavjud mehmonxonalar kapital ta’mirdan chiqarildi. Ularning ko‘pchiligi xorijiy investorlar ishtirokida barpo etildi. Natijada xalqaro standartlarga javob beradigan mehmonxonalar soni ortib bordi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda turizm xizmatlari sifatini yanada oshirish zarurati ham mavjud edi. Buni inobatga olib, 2006-yil 17-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “2006–2010-yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. Ushbu qaror turizm sohasini yanada rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va xalqaro sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratishda muhim ahamiyat kasb etdi.arxiv

2. Hozirgi muhitda Turistik mahsulot va uning turlari respublikamiz xizmatlar bozorida ham o’z mavqeini mustahkamlab borayotganligini ko’rish mumkin. Ma’lumki, O’zbekiston ulkan turistik salohiyatga ega bo’lgan davlat hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda, O’zbekiston Respublikasining tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy-madaniy munosabatlar strategiyasida ham turizmning iqtisodiy-moliyaviy va madaniy-ma’rifiy salohiyatidan unumli foydalanish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.Zero, turizmning– millatlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash hamda xalqaro sayyohlik bozoriga uzviy qo’shilish, O’zbekistonning madaniy-tarixiy va ma’naviy merosini jahon

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

hamjamiyatida targ'ib qilishda o'rni va roli yuqoridir. 1990-yillar oxirida Yevropa Komissiyasi tomonidan o'tkazilgan tahlilga ko'ra, madaniyat turistlarning 60 % uchun sayyohat qilishga undovchi asosiy sabab sifatida ko'rsatilgan. Shuni e'tiborga olib, Butunjahon sayyohlik tashkiloti Bosh Assambleyasining 12-chi sessiyasida "Yangi ming yillik uchun butunjahon madaniy merosini saqlash" zarurligi haqida qaror qabul qildi. Darhaqiqat, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon kabi tarixiy obidalarga boy shaharlar ya'ni "Ochiq osmon ostidagi muzey"lar butun dunyoga mashhur. O'zbekiston katta tarixiy-madaniy merosga – 7 ming 330 dan ortiq tarixiy-me'moriy va arxeologik obidalarga ega bo'lib, tarixiy obidalarning 140 tasi YUNESKO tomonidan muhofaza etiladigan tarixiy yodgorliklar sirasiga kiritilgan. Shuningdek, O'zbekiston noyob tabiat yodgorliklari, jumladan, 400 dan ortiq noyob tabiat yodgorliklari, tog'li hududlarda 400 dan ortiq g'orlar, 500 dan ortiq ko'llar, shuningdek, daryolar, sharsharalar mavjud. Bularning barchasi an'anaviy turizm bilan birga alternativ (ekoturizm, etnoturizm va hokazo) sayyohlik turlari birga olib borish hamda xalqaro miqyosda sayyohlarni o'ziga jalb etish borasida O'zbekistonning turistik salohiyati ortib borishi uchun zamin hisoblanadi.

3. O'zbekistonga borgan turistlar oqimi 2019-yil darajasiga nisbatan 73 foizga oshdi, deyiladi Butunjahon turizm tashkiloti hisobotida. Bu mamlakatni dunyoda turizmda eng yuqori o'sish qayd etgan oltinchi davlatga aylantirdi. 2025-yilning 11 oyida mamlakatga 10,7 milliondan ortiq xorijiy sayyoh keldi.Butunjahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga (World Tourism Barometer) ko'ra, O'zbekiston 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida xorijiy sayyohlarni jalb qilish bo'yicha dunyoda eng yuqori o'sish qayd etilgan top-7 davlat qatoriga kirdi.

BMT Turizm hisobotida qayd etilishicha, 2025-yil yanvar-sentabr oylarida jahon bo'yicha xalqaro sayohatlar hajmi o'rtacha 5 foizga oshib, global turizm pandemiyadan keyingi barqaror tiklanish bosqichiga kirgan.gazita

Prezidentning "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan 2019 yilning 1 noyabridan e'tiboran Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi eng yuqori turizm salohiyatga ega bo'lgan fuqarolar yig'inlari (shaharcha, qishloq, ovullar hamda shahar, shaharcha, qishloq va ovullarning mahallalari) ro'yxatini shakllantira boshlaydi.

Qo'mita matbuot xizmati xabariga ko'ra, fuqarolar yig'inlari hududlarida 20 tadan kam bo'lmagan oilaviy mehmon uylari yaratilgan taqdirda va sayyohlar uchun kamida besh xil xizmat turi (yashash va/yoki ovqatlantirish xizmatlaridan tashqari) ko'rsatilgan taqdirda, ularga "Turizm mahallasi", "Turizm qishlog'i" yoki "Turizm ovuli" maqomi beriladi.

2020 yildan boshlab "Turizm mahallasi", "Turizm qishlog'i" yoki "Turizm ovuli" maqomining berilgan fuqarolar yig'ini "Obod qishloq" va "Obod mahalla" davlat dasturlariga kiritiladi

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020 yil 28 maydagi «Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab- quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonida ko'rsatilgan turizm bozori ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish mexanizmlari soha tadbirkorlariga katta madad berishni nazarda tutadi. Unga muvofiq turizm bozori vakillarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha maqsadli mexanizmlar joriy etilganini turizm iqtisodiyotida davlat ishtirokining diqqatga sazovor ijobiy samarasi sifatida qarash lozim. Sayyohlar xavfsizligini ta'minlashning yangi mexanizmlari va tizimlari joriy etilishi sohada davlat ishtirokining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'ldi.Farmonga muvofiq O'zbekistonda sayyohlar sanitariya-epidemiologik xavfsizligini ta'minlashga oid yangi tizimning, ya'ni Uzbekistan. Safe travel Guaranteed («O'zbekiston. Xavfsiz sayohat

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

kafolatlangan») joriy etilishi pandemiya sharoitida turizmni qo'llab-quvvatlashning, unga amaliy yordam ko'rsatish-ning yorqin namunasi, desak to'g'ri bo'ladi. Farmonga asosan Turoperatorlar va joylashtirish vositalarini qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli foizsiz ssudalar ajratilishi ko'zda tutilgan. Ushbu ssudalar turoperatorlar va joylashtirish vositalari o'z xodimlarini ish haqini to'lash orqali saqlab turishlari uchun 12 oy muddatga bir marta maqsadli ajratiladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, ana shu va boshqa ko'plab maqsadli qo'llab- quvvatlash choralari natijasida, 2020 yilning oxiriga qadar 450 million dollarlik turistik xizmatlarni eksport qilish imkoniyati yaratildi.

Ayni paytda Prezidentning 2020 yil 19 iyundagi «Sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat'iy rioya qilgan holda, turizm sohasini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4755-son Qarori e'lon qilindi. Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish choratadbirlari to'g'risida» (433-son 10.07.2020) Qarori qabul qilindi. Sobiq O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasi tomonidan ham turizmni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan tezkor choralar amalga oshirildi, jumladan, Qo'mita huzuridagi byudjetdan tashqari Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan foizsiz ssudalar ajratildi

5. Quyidagilar 2030 yilgacha turizm sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadlari etib belgilansin:

(a) turizm sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini amaldagi 3,5 foizdan 7 foizgacha yetkazish;

(b) chet ellik turistlarning yillik sonini amaldagi 10 mln nafardan 20 mln nafargacha yetkazish, shu jumladan, to'lov qobiliyati yuqori bo'lgan turistlar oqimini ko'paytirish;

(v) turizm xizmatlari yillik eksporti hajmini 6 mlrd AQSH dollaridan oshirish;

(g) O'zbekistonning turistik shaharlari o'rtasidagi transport bog'lanishini yaxshilash, ichki aviaqatnovlar sonini ko'paytirish hamda yo'lga sarflanadigan vaqtni kamida 3 baravarga qisqartirish;

(d) 4 va 5 yulduzli mehmonxonalar sonini 2 baravarga oshirish;

(j) turistik xizmatlar va mahsulotlarni diversifikatsiya qilish orqali respublikaning turistik salohiyatini to'liq ishga solish;

(z) jahonda keng taniladigan O'zbekistonning turistik brendini yaratish va milliy turistik mahsulotlarni ommalashtirish uchun yangi instrumentlarni joriy etish.

II. Sohada davlat boshqaruvini takomillashtirish

2. Quyidagilar:

(a) O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari 1-ilovaga muvofiq;

(b) O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining tashkiliy tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki:

(a) O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi (keyingi o'rinlarda – Qo'mita) turizm sohasini tartibga solish va rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshiruvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi;

(b) Qo'mita o'z vakolatlari doirasida umummajburiy bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishga haqli;

(v) Qo'mita raisi:

(i) belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi;

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

6.Prezidentning "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan 2019 yilning 1 noyabridan e'tiboran Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi eng yuqori turizm salohiyatga ega bo'lgan fuqarolar yig'inlari (shaharcha, qishloq, ovullar hamda shahar, shaharcha, qishloq va ovullarning mahallalari) ro'yxatini shakllantira boshlaydi.

Qo'mita matbuot xizmati xabariga ko'ra, fuqarolar yig'inlari hududlarida 20 tadan kam bo'lmagan oilaviy mehmon uylari yaratilgan taqdirda va sayyohlar uchun kamida besh xil xizmat turi (yashash va/yoki ovqatlantirish xizmatlaridan tashqari) ko'rsatilgan taqdirda, ularga "Turizm mahallasi", "Turizm qishlog'i" yoki "Turizm ovuli" maqomi beriladi.

2020 yildan boshlab "Turizm mahallasi", "Turizm qishlog'i" yoki "Turizm ovuli" maqomining berilgan fuqarolar yig'ini "Obod qishloq" va "Obod mahalla" davlat dasturlariga kiritiladi

7. Ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha ham bir qator amaliy choralar ko'rilmoqda. "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasida 15 mln nafar aholi sayohatga chiqdi va hududlar bo'ylab 21 mln tashrif uyushtirildi. Ijtimoiy ko'mak sifatida 1,1 ming nafar imkoniyati cheklangan shaxs va 570 ming nafar yoshlar sayohatga chiqarildi.

2023-yilda turistik xizmatlar eksporti 2 mlrd 143,5 mln dollarni tashkil etdi, bu 2022-yilga nisbatan 1,3 barobar oshganini ko'rsatadi. Shuningdek, turizm va unga yondosh sohalar yo'nalishida 70 ming nafarga yaqin yangi ish o'rni yaratildi. Bu esa mamlakatda turistlarga har tomonlama qulaylik yaratilganligining natijasidir.

Turizmning rivojlanishi, shuningdek, mamlakatimizning xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashini ta'minlamoqda. Masalan, "Jahon musulmon sayohati indeksi" (GMTI-2023) xalqaro ziyorat turizmi reytingida O'zbekiston 140 ta mamlakat ichida 13-o'rinni egalladi. "Halal In Travel Awards 2023" tadbirida Xiva shahri "Yilning islom merosi turizm manzili" sovrinini qo'lga kiritdi.

2023-yilda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan UNWTO Bosh Assambleyasining 25-sessiyasida Navoiy viloyatidagi Sentob qishlog'i "Best Tourism Village 2023 Awards" nominatsiyasi bo'yicha g'olib bo'ldi. Bundan tashqari, "Lonely Planet" xalqaro nashriyot kompaniyasi tomonidan 2024-yil uchun "O'zbekiston – eng yaxshi sayohat maskani" nominatsiyasi g'olibi bo'lganligi munosabati bilan O'zbekistonga maxsus sertifikat topshirildi.

8. Ozarbayjon Respublikasi Davlat turizm agentligi raisi o'rinbosari Azada Guseynova bilan o'tkazilgan uchrashuvda ikki tomonlama amaliy hamkorlikni kengaytirish, yangilangan O'zaro anglashuv memorandumini imzolashga tayyorgarlik hamda qo'shma marketing tashabbuslarini amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi. Tomonlar o'zaro FAM-turlar va blogerlar tashriflarini tashkil etish, tur operatorlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyo bozorlariga yo'naltirilgan qo'shma turistik marshrutlarni shakllantirish imkoniyatlarini ishlab chiqish bo'yicha kelishuvga erishildi.

9. O'zbekiston Turizm qo'mitasi raisi Germaniyada bo'lib o'tgan UN Tourism turizm vazirlari sammitida ishtirok etdiSammit ishida O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi raisi A. Aqqulov ishtirok etdi. U o'z nutqida ishtirokchilarga mamlakatimizda turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, strategik investitsiyaviy ustuvorliklar, hududiy yo'nalishlarni rivojlantirish hamda sohaning barqaror o'sishi uchun qulay institutsional muhit yaratish bo'yicha ko'rilayotgan choralar haqida ma'lumot berdi. Mahalliy hamjamiyatlarni jalb etish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va turistik xizmatlar sifatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Sammitning xalqaro ahamiyati sohaning global miqyosda o'zgarishi sharoitida turizmni rivojlantirishga doir kelishilgan yondashuvlarni shakllantirishdan iboratdir.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ITB Berlin platformasi an'anaviy tarzda jahon turizm bozorining asosiy ishtirokchilarini birlashtiradi, vazirlar darajasidagi format esa uzoq muddatli rivojlanish, investitsiyaviy barqarorlik va turizmning milliy iqtisodiyotga qo'shadigan hissasini oshirishga qaratilgan yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Bu kabi uchrashuvlarni o'tkazish yanada barqaror, inklyuziv va raqobatbardosh global turizm tizimini yaratishga yordam berib, kelgusidagi xalqaro hamkorlik, siyosatni muvofiqlashtirish va ilg'or tajriba almashish uchun zamin yaratadi.

Xulosa

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishdan asosiy maqsad — jamiyat ehtiyojlarini qondirish, xizmat ko'rsatish sifati va hajmini kengaytirgan holda sohaga bozor iqtisodiyotining dunyo standartlari darajasidagi modeli kirib kelishini ta'minlashdir. Jamiyat ehtiyojini qondirish, turistlar talabini ichki va tashqi turizm xizmatlariga, aholining ekskursion xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shu bilan xizmat importi va eksportiga bo'lgan xalqaro talabni o'rganish bilan bog'liqligi masalaning nechog'li muhimligini ko'rsatadi.

E'tirof etish kerakki, O'zbekiston Respublikasida turizm industriyasini xalqaro talablarga mos ravishda rivojlantirish uchun xususiy turistik tashkilotlarning faoliyat doirasini yanada kengaytirish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'lida muayyan siljishlarga erishilmoqda. Turizm yo'nalishidagi kichik va xususiy biznes sub'ektlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishni ta'minlovchi qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar yaratilib, amaliyotda qo'llanilmoqda.

Ayni vaqtda turizmni rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arxiv.uz. https://arxiv.uz
2. O'zbekiston ilmiy tadqiqotlar milliy markazi**.** Scinenceweb.uz. https://api.scienceweb.uz
3. Газета.uz. https://www.gazeta.uz
4. "Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora tadbirlar to'g'risida"gi PF-6002 -sonli Prezident Farmoni. 28.05.2020 https://lex.uz/docs/4831118
5. Узбекистон Миллий ахборот агентлиги https://uza.uz
6. Kun.uz. https://kun.uz
7. Strategy.uz. https://strategy.uz
8. Xabar.uz. https://xabar.uz
9. UzReport.news. https://uzreport.news

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.